

**SHIFOXONADA UZOQ MUDDATLI DAVOLANAYOTGAN
BOLALAR BILAN ISHLASHDA PEDAGOGIK
FAOLIYATNI INDIVIDUALLASHTIRISH**

Bahodirova Feruza

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti

Surdopedagogika yo'nalishi 4-kurs talabasi

Kalit so'zlar: pedagog, davolanish, maktab, ta'lim, individuallashtirish, reja, salomatlik, psixologiya, dars, interaktiv

Annotatsiya / Abstract: **Uz.** Maqolada shifoxonada uzoq davolanayotgan bolalarni o'qitishda pedagogik jarayonni individuallashtirish zarurligi yoritiladi. Bolaning sog'lig'i, psixologik holati va ehtiyojlariga moslashtirilgan darslar, moslashuvchan metodlar hamda ota-ona va tibbiyot xodimlari bilan hamkorlik ta'lim samaradorligini oshirishi ta'kidlanadi.

Ru. В статье рассматривается необходимость индивидуализации педагогической деятельности при обучении детей, проходящих длительное лечение в больнице. Подчеркивается важность адаптации образовательного процесса к состоянию здоровья, психологическим особенностям и потребностям ребёнка, а также взаимодействия с родителями и медицинским персоналом.

An. The article discusses the importance of individualizing pedagogical practices when teaching children undergoing long-term hospital treatment. It highlights the need to adapt the educational process to the child's health condition, psychological characteristics, and learning needs, as well as to maintain cooperation with parents and medical staff.

Kirish: Tibbiyot muassasalarida uzoq muddatli statsionarda davolanishga muhtoj bolalarni umumiy o'rta ta'lim bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi 75 Nizomga ko'ra, tibbiyot muassasalari huzuridagi umumta'lim maktablari davlat ta'lim standartlariga mos keladi va har bir shaxsning o'rta ta'lim olish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladi. Davolash-profilaktika muassasalarining umum ta'lim maktablarida ta'lim bepul amalga oshiriladi. Shuningdek shifoxonada uzoq muddatli davolanayotgan bolalar jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishida ma'lum darajada uzilishlarga duch kelishi mumkin. Ularning sog'ligidagi muammolar ta'lim jarayonining to'xtab qolishi, ijtimoiy moslashuvning sustlashishi va ruhiy zo'riqlashlarga olib keladi. Shu bois pedagogik jarayonni individuallashtirish, ya'ni har bir bolaning sog'lig'i, psixologik holati va o'quv imkoniyatlariga mos ta'limni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Shifoxonada uzoq muddatli davolanayotgan bolalar bilan ishlashda pedagogik faoliyatni individuallashtirish jarayoni bolaning salomatligi, psixologik holati, ta'lim darajasi va qiziqishlariga moslashtirilgan holda tashkil etiladi. Bu faoliyatni asosiy ravishda shifoxona pedagogi olib boradi. Shifoxona pedagogi har bir bola uchun individual o'quv rejasi tuzadi, unda bolaning o'qish qobiliyati, e'tibor darajasi va ruhiy holati hisobga olinadi.

Darslar kichik guruhlarda yoki yakka tartibda o'tkaziladi, mashg'ulotlar qisqa va maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuningdek, vizual materiallar, interaktiv usullar va o'yinlar orqali ta'lim jarayoni qiziqarli va samarali qilinadi. Bolaning sog'liq holatiga qarab darslarning vaqti va mazmuni moslashtiriladi, agar bola charchasa yoki tibbiy protsedura bo'lsa, mashg'ulotlar soddalashtiriladi yoki qisqartiriladi.

Shifokor va psixologlar bilan hamkorlikda bolaning salomatligi va psixologik holati doimiy ravishda kuzatiladi. Zarurat tug'ilganda individual o'quv rejasi qayta ko'rib chiqiladi. Ota-onalar yoki vasiylar bilan maslahatlashish orqali uy sharoitida bajarilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha topshiriqlar belgilanadi.

Shuningdek, pedagogik jarayonda bolaga psixologik qo'llab-quvvatlash ham bo'ladi, bu esa uning ruhiy holatini yaxshilash, motivatsiyasini oshirish va ta'lim jarayonini stressdan holi qilishga yordam beradi. Shu tarzda shifoxonada uzoq muddatli davolanayotgan bolalar bilan ishlash samarali va bolaning individual ehtiyojlariga mos bo'lib amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- M.U. Xamidova. “Maxsus pedagogiga ‘ (mutaxassislikka kirish). Toshkent-2018.
- M. R. Po'latxo'jayeva “ Defektalogiyaning klinik asoslari”